



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	



KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH

Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li
 Islom Karimov nomidagi
 Toshkent davlat texnika universiteti
 Akademik mobillik bo'limi boshlig'i
pulatjuraev850@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-9962-9419>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishning raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda kichik sanoat zonalariga investitsiyalarni jalb etish jarayonida mavjud tashkiliy, iqtisodiy va institutsional muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, investitsion faoliyatni raqamlashtirish, investorlar uchun yagona axborot maydonini yaratish, elektron monitoring, raqamli loyiha boshqaruvi, geografik axborot tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishga qaratilgan raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning tarkibiy elementlari ishlab chiqilgan hamda uni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonasi, investitsion faollik, investitsiya, raqamlashtirish, raqamli platforma, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, investor, infratuzilma, elektron monitoring, investitsion loyiha.

Аннотация. В статье исследованы научно-теоретические и практические аспекты формирования цифровых организационно-экономических механизмов повышения инвестиционной активности в малых промышленных зонах Узбекистана. Раскрыта роль малых промышленных зон в развитии региональной экономики, создании новых производственных мощностей, рабочих мест и эффективном использовании местных ресурсов. Проанализированы организационные, экономические и институциональные проблемы привлечения инвестиций в малые промышленные зоны. Обоснованы возможности цифровизации инвестиционной деятельности, создания единого информационного пространства для инвесторов, электронного мониторинга, цифрового управления проектами и применения геоинформационных систем. Разработаны основные элементы цифрового организационно-экономического механизма повышения инвестиционной активности и предложены практические рекомендации по его совершенствованию.

Ключевые слова: малая промышленная зона, инвестиционная активность, инвестиции, цифровизация, цифровая платформа, организационно-экономический механизм, инвестор, инфраструктура, электронный мониторинг, инвестиционный проект.

Abstract. The article examines the scientific, theoretical and practical aspects of developing digital organizational and economic mechanisms to increase investment activity in small industrial zones in Uzbekistan. The role of small industrial zones in regional economic development, creation of new production capacities and jobs, and efficient use of local resources is analyzed. The study identifies organizational, economic and institutional barriers to attracting investment into small industrial zones. Particular attention is paid to the digitalization of investment activities, the development of a unified information environment for investors, electronic monitoring, digital project management and geographic information systems. A conceptual digital organizational and economic mechanism for increasing investment activity in small industrial zones is proposed, together with practical recommendations for its implementation.

Keywords: small industrial zone, investment activity, investment, digitalization, digital platform, organizational and economic mechanism, investor, infrastructure, electronic monitoring, investment project.



KIRISH

Bugungi kunda hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish va investitsiyalarni hududlarga keng jalb etish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish hududiy sanoatni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda mahalliy xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur jarayonlarni an'anaviy boshqaruv usullari asosida tashkil etish yetarli samara bermasligi mumkin. Chunki investorlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning turli tashkilotlar o'rtasida tarqoq holda saqlanishi, loyiha hujjatlarini kelishish jarayonining murakkabligi, bo'sh yer uchastkalari va ishlab chiqarish infratuzilmasi haqidagi ma'lumotlarning yagona platformada jamlanmaganligi investitsion qarorlarni qabul qilish muddatini uzaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, kichik sanoat zonalarida investitsion faoliyatni raqamlashtirish, investorlar bilan ishlashning elektron tizimini shakllantirish, investitsion loyihalarni raqamli monitoring qilish va zonalarining investitsion salohiyatini real vaqt rejimida baholash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish kichik sanoat zonalarini boshqarishning barcha bosqichlarini qamrab olishi mumkin. Xususan, investitsion loyihalarni qidirish va tanlash, investorlarni jalb qilish, yer va infratuzilma obyektlari haqida ma'lumot berish, loyiha hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish, loyiha ijrosini monitoring qilish, muammolarni aniqlash va natijalarni baholash yagona raqamli tizim orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishning raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish nafaqat investitsiyalar hajmini oshirish, balki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini ta'minlash, loyihalarning amalga oshirish muddatlarini qisqartirish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish va investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishning raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, uning asosiy elementlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kichik sanoat zonalarining iqtisodiy mazmuni va investitsion faoliyatdagi o'rnini aniqlash;
- kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish;
- investitsion faoliyatni boshqarishdagi tashkiliy va iqtisodiy muammolarni aniqlash;
- raqamlashtirishning investitsion jarayonlarga ta'sirini o'rganish;
- kichik sanoat zonalarida raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizm modelini ishlab chiqish;
- investitsion loyihalarni raqamli monitoring qilish tizimini taklif etish;
- investitsion faollikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, sanoat infratuzilmasidan samarali foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini boshqarish hamda raqamli texnologiyalarni iqtisodiy jarayonlarga joriy etish bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda investitsion faollikni oshirish faqat moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan emas, balki investorlar uchun qulay tashkiliy-iqtisodiy muhit yaratish, axborot ochiqligini ta'minlash, infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish va zamonaviy raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish bilan ham izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotchi M. Porter sanoat klasterlari va hududiy raqobatbardoshlik masalalarini o'rganib, korxonalarning bir hududda jamlanishi infratuzilma, resurslar, bilim va texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, korxonalar o'rtasidagi raqobat va kooperatsiyaning rivojlanishi hududning investitsion jozibadorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Mazkur yondashuv kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishda ishlab chiqarish kooperatsiyasi va umumiy infratuzilmadan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi; P. Krugman hududiy iqtisodiy rivojlanishni tadqiq etib, ishlab chiqarishning ma'lum hududlarda konsentratsiyalashuvi bozor hajmi, transport xarajatlari va infratuzilma imkoniyatlari bilan bog'liqligini asoslaydi. Muallifning fikricha, hududning iqtisodiy jozibadorligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va bozorga yaqinlik kabi omillarga bevosita bog'liq. Ushbu yondashuv kichik sanoat zonalarida transport-logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish investitsion faollikning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi; J.H. Dunning investitsiyalarni joylashtirish omillarini tadqiq qilib, investorlar uchun hududning infratuzilmasi, resurslari, bozor imkoniyatlari va institutsional sharoitlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olimning yondashuviga ko'ra, hududning investitsion



jozibadorligini oshirishda qulay biznes muhiti va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur fikr kichik sanoat zonalarida investorlar uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish va investitsiya xizmatlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi; E. Brynjolfsson va A. McAfee raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini o'rganib, raqamlashtirish boshqaruv samaradorligi va qaror qabul qilish tezligini oshirishini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar fikricha, raqamli texnologiyalardan foydalanish biznes jarayonlarini takomillashtirish va iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv kichik sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini elektron qabul qilish, baholash va monitoring qilish tizimlarini joriy etishning ahamiyatini ko'rsatadi;

Mahalliy tadqiqotchilardan B. Mullabayev kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini investitsion faollik va hududiy iqtisodiy o'sish bilan bog'liq holda tadqiq etadi. Muallifning fikricha, kichik biznes subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish ishlab chiqarish hajmini oshirish va hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishning muhim omillaridan biridir; A. Karimov kichik biznes faoliyatida raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish, investitsion va moliyaviy jarayonlarni monitoring qilish masalalarini tadqiq etadi. Muallifning fikricha, raqamli boshqaruv vositalari axborot almashinuvini tezlashtirish, risklarni o'z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv kichik sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini raqamli monitoring qilish va investorlar uchun axborot xizmatlarini takomillashtirishning ahamiyatini ko'rsatadi. Ko'rib chiqilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda kichik sanoat zonalar va investitsion faollik masalalari ko'proq hududiy konsentratsiya, klasterlashuv, investitsion jozibadorlik, infratuzilma va raqamli transformatsiya bilan bog'langan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish manbalari, hududiy rivojlanish va raqamli boshqaruv masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish va raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yagona tizim sifatida shakllantirish masalasi yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Mazkur holat kichik sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini raqamli baholash, investorlar uchun yagona axborot platformasini shakllantirish, bo'sh ishlab chiqarish maydonlarini elektron monitoring qilish va investitsiya jarayonlarini raqamli boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy va raqamli mexanizmlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlashtirish, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil hamda modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosini investitsion faollikni alohida ko'rsatkichlar orqali emas, balki infratuzilmaviy, moliyaviy, institutsional, axborot va raqamli omillarning o'zaro bog'liqligi asosida baholash tashkil etadi.

Kichik sanoat zonasining investitsion faolligini umumiy baholash uchun quyidagi indeksdan foydalanish mumkin:

$$IFA = w_1I + w_2M + w_3I_r + w_4D + w_5T$$

bu yerda:

IFA — investitsion faollik indeksi;

I — infratuzilmaviy ta'minlanganlik ko'rsatkichi;

M — moliyaviy-iqtisodiy jozibadorlik ko'rsatkichi;

I_r — institutsional muhit ko'rsatkichi;

D — raqamli tayyorgarlik darajasi;

T — tadbirkorlik va bozor faolligi ko'rsatkichi;

$w_1...w_5$ — tegishli omillarning vazn koeffitsiyentlari.

Mazkur yondashuv kichik sanoat zonalarini bir-biri bilan taqqoslash, investitsion salohiyati past hududlarni aniqlash va ularga yo'naltiriladigan davlat ko'magini differensiallashtirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik sanoat zonalarining asosiy vazifalaridan biri hududlarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Bunda zonalarda ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish, infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish va tadbirkorlarning investitsion loyihalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

Kichik sanoat zonasining investitsion jozibadorligi bir qator omillarga bog'liq. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (1-jadval).



1-jadval
Kichik sanoat zonalarida investitsion faollikka ta'sir etuvchi asosiy omillar

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Investitsion faollikka ta'siri
Infratuzilmaviy	Elektr energiyasi, gaz, suv, kanalizatsiya, avtomobil yo'llari	Yuqori
Moliyaviy	Kreditlar, subsidiyalar, imtiyozlar, moliyalashtirish imkoniyatlari	Yuqori
Bozor	Mahsulotga talab, bozor sig'imi, iste'molchilar yaqinligi	Yuqori
Mehnat	Malakali ishchi kuchi, mehnat resurslarining mavjudligi	O'rta-yuqori
Institutsional	Ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish va kelishish jarayonlari	Yuqori
Axborot	Investorlar uchun ochiq va ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi	Yuqori
Raqamli	Elektron xizmatlar, raqamli platformalar, GIS va onlayn monitoring	Yuqori
Logistika	Transport, omborxona va logistika infratuzilmasi	Yuqori

Jadvaldan ko'rinadiki, investitsion faollikni oshirish faqat moliyaviy rag'batlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Investorning qaror qabul qilishida infratuzilma, axborotning mavjudligi, ma'muriy jarayonlarning soddaligi va raqamli xizmatlarning rivojlanganligi ham katta ahamiyatga ega.

Shu sababli kichik sanoat zonalarini boshqarishda raqamli investitsion ekotizimni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Kichik sanoat zonalarida mavjud tashkiliy-iqtisodiy muammolar

Kichik sanoat zonalarida investitsion faoliyatni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Ularni shartli ravishda to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. tashkiliy muammolar;
2. iqtisodiy muammolar;
3. infratuzilmaviy muammolar;
4. axborot va raqamli muammolar.

Tashkiliy muammolar, avvalo, investorning bir nechta tashkilotga murojaat qilishi, hujjatlarni kelishish jarayonining cho'zilishi va loyiha amalga oshirilishi davomida turli idoralar o'rtasidagi muvofiqlashtirishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq.

Iqtisodiy muammolar esa moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kredit mablag'lariga kirish imkoniyatining murakkabligi, investitsion loyihalarning yuqori boshlang'ich xarajatlari va ayrim loyihalarning uzoq muddatda o'zini oqlashi bilan izohlanadi.

Infratuzilmaviy muammolar elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv, kanalizatsiya, avtomobil yo'llari va boshqa kommunikatsiyalar quvvatining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Axborot muammolari esa investor uchun hudud to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq, tezkor va tushunarli shaklda taqdim etilmasligi bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadval
Kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni cheklovchi muammolar va ularning raqamli yechimlari

Muammo	An'anaviy holat	Raqamli yechim
Bo'sh yer haqida ma'lumot yetishmasligi	Tarqoq ma'lumot	GIS xarita
Hujjatlarni topshirish	Qog'oz shakli	Elektron ariza
Loyiha monitoringi	Davriy hisobot	Real vaqt monitoringi
Investor bilan aloqa	Telefon va uchrashuv	Yagona portal
Infratuzilma ma'lumotlari	Turli tashkilotlarda	Integratsiyalashgan baza
Loyiha reytingi	Subyektiv baholash	Raqamli scoring
Muammolarni aniqlash	Kechikib aniqlanadi	Avtomatik indikatorlar
Hisobot	Qo'lda shakllantiriladi	Avtomatik dashboard

Mazkur yondashuv investitsion jarayonlarning shaffofligini oshirish bilan birga, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish imkonini ham beradi.

Investitsion loyihalarni raqamli baholash

Kichik sanoat zonalariga kelib tushadigan investitsion loyihalarni samarali saralash uchun raqamli scoring tizimidan foydalanish mumkin.

Loyihalarni baholashda quyidagi mezonlar taklif etiladi (3-jadval):



№	Mezon	Ulushi, %
1	Investitsiya hajmi	20
2	Yangi ish o'rinlari	15
3	Eksport salohiyati	15
4	Mahalliy xomashyodan foydalanish	10
5	Soliq va iqtisodiy samaradorlik	10
6	Innovatsionlik darajasi	10
7	Energiya samaradorligi	5
8	Mahalliy kooperatsiya imkoniyati	5
9	Loyiha amalga oshirish muddati	5
10	Raqamli texnologiyalardan foydalanish	5
Jami		100

Scoring tizimi orqali loyihalarni avtomatik ravishda ustuvorlik darajasiga ajratish mumkin.

Masalan:

- **80–100 ball** — yuqori ustuvorlikdagi loyiha;
- **60–79 ball** — o'rta ustuvorlikdagi loyiha;
- **40–59 ball** — takomillashtirish talab qilinadigan loyiha;
- **40 balldan past** — qo'shimcha ekspertiza talab qilinadigan loyiha.

Bunday tizim investitsion loyihalarni tanlashda subyektivlikni kamaytiradi va davlat ko'magini iqtisodiy jihatdan samaraliroq loyihalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Kichik sanoat zonalarida raqamli monitoring tizimi

Investitsion loyiha tasdiqlangandan keyin uning bajarilishini monitoring qilish ham muhim hisoblanadi.

An'anaviy monitoringda ma'lumotlar davriy ravishda yig'iladi. Bu esa muammolarni kech aniqlashga olib kelishi mumkin.

Raqamli monitoring tizimida har bir loyiha uchun asosiy ko'rsatkichlar belgilanadi:

- o'zlashtirilgan investitsiya hajmi;
- qurilish-montaj ishlari holati;
- ishlab chiqarish quvvatining ishga tushirilishi;
- yangi ish o'rinlari soni;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmi;
- eksport hajmi;
- soliq tushumlari;
- infratuzilmadan foydalanish;
- loyiha amalga oshirish muddati (1-rasm).

KICHIK SANOAT ZONASI MONITORINGI		
Loyihalar soni	Investitsiya hajmi	Ish o'rinlari soni
Faol loyihalar	O'zlashtirish darajasi	Ishlab chiqarish hajmi
INVESTITSION LOYIHALAR XARITASI		
	Kichik sanoat zonolari	
	● Faol loyiha	
	● Yangi loyiha	
	● Muammoli loyiha	
Muammoli loyihalar	Kechikayotgan loyihalar	
● Normal	● Nazoratda	
● Muammoli	● Yakunlangan	

1-rasm. Raqamli monitoring dashboardining konseptual ko'rinishi



Dashboard yordamida mas'ul tashkilotlar qaysi loyiha o'z vaqtida amalga oshirilayotganini, qaysi loyihada muammo mavjudligini va qaysi yo'nalishga qo'shimcha boshqaruv chorasi zarurligini tezkor aniqlashi mumkin.

GIS texnologiyalaridan foydalanish

Kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishning muhim vositalaridan biri geografik axborot tizimlaridan foydalanishdir.

GIS platformasida quyidagi ma'lumotlarni aks ettirish mumkin:

- kichik sanoat zonalarining geografik joylashuvi; bo'sh yer maydonlari; mavjud ishlab chiqarish obyektlari; elektr energiyasi tarmoqlari; gaz tarmoqlari; suv tarmoqlari; vtomobil va temir yo'l infratuzilmasi; logistika markazlari; mehnat resurslari salohiyati; mavjud korxonalar; investitsion loyihalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirishda infratuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, qulay institutsional muhit va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish investorlar uchun axborot olish, loyiha tanlash, hujjatlarni rasmiylashtirish va loyihalarni monitoring qilish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Shu sababli kichik sanoat zonalarida yagona raqamli investitsiya platformasini joriy etish, bo'sh ishlab chiqarish maydonlari va mavjud infratuzilma to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda taqdim etish, investitsiya loyihalarini raqamli baholash va monitoring qilish tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mazkur mexanizmlarning amaliyotga joriy etilishi investitsion jarayonlarning shaffofligini oshirish, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish va investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni kichik sanoat zonalarida faoliyatiga integratsiya qilish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va iqtisodiy faollikni kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr, O'RQ-598-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Investitsiya siyosati va hududiy rivojlanish bo'yicha uslubiy materiallar.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar.
5. World Bank. Digital Economy for Development. Washington, D.C.: World Bank.
6. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. Washington, D.C.: World Bank.
7. OECD. Digital Economy Outlook. Paris: OECD Publishing.
8. UNCTAD. World Investment Report. United Nations Conference on Trade and Development.
9. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
